



## IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISH MASALALARI

**Kengashev G'ayrat Mardiyevich**

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan  
1-son kasb-hunar maktabi Ishlab chiqarish ta'lif ustasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslar bo'lgan o'quvchilarni chuqurlashtirilgan ixtisosli, tabaqalashtirilgan o'qitish, intellektual rivojlantirishni ta'minlash va ularning jismoniy kamol topishi xususiyatlariga muvofiq tanlangan kasblar bo'yicha mutaxassislikni egallash imkoniyatlari tahlil qilingan. Bunda davlat va pedagoglarning roli muhimligi ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** imkoniyati cheklangan shaxslar, maktab, imkoniyat, davlat, ta'lif, kasb, tarbiya, jamiyat, pedagog, nogiron, kasbga yo'naltirish, sharoit.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach yurtimizdagi ko'p o'zgarishlar kabi ta'lif sohasida ham juda katta o'zgarishlar bo'ldi. Xususan nogiron va imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lif tarbiya berish, ularni jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berish lozimligi kabi masalalar atroflicha davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yurtimizda sog'lom kishilar qatori nuqsonli insonlar ham jamiyatda ma'lum jabhada faoliyat ko'rsatib, o'z o'rnini topishga haqlidirlar. Bunda ularni o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda kasb – hunar egallahlariga sharoit yaratib berish kerak bo'ladi.

Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad yosh avlodni o'zi ma'qul ko'rghan kasbni ongli ravishda tanlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllanish jarayonini o'tadi, bozor iqtisodi

Munosabatlariga moslashib borishga ko'maklashadi. Kasbga yo'naltirishda bunday shaxslarni erkin va mustaqil tanlashlarining amaliy tizimi sifatida qaralishi lozim.

Kasb tanlashda har bir shaxsning individual psixologik xususiyatlari, xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash zaruriyati kabi omillar hisobga olinmog'i lozim.

Kasbga yo'naltirish bu yoshlarning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlar va jamiyatning turli xil kasblariga bo'lgan ehtiyojiga mos, ularni asoslangan kasb tanlashga yordam beradigan maqsadli faoliyatdir. "Ta'lif to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida", "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari talablarini ta'minlash maqsadida respublikada imkoniyatlari cheklangan bolalar va o'smirlar uchun qulay sharoitlar yaratish borasida hukumatimiz tomonidan katta ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 17 maydag'i

“Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to’g’risidagi” 100-sonli qaroriga asosan imkoniyatlari cheklangan shaxslarga ehtiyojlarini qondirish uchun kasb-hunar ta’limini olishning qonuniy bazasi yaratildi. Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji O’zbekiston Respublikasining Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi, Iqtisodiyot vazirligi va Sog’liqni saqlash vazirliklarining qo’shma Qarori bilan tasdiqlangan “Mutaxassisliklar va kasblar ro’yxati”ga asosan imkoniyatlari cheklangan o’smir va yoshlarga kasb-hunarga ega bo’lishlarida teng huquqini ta’minlaydi.

Imkoniyatlari cheklangan shaxslar mutaxassislik bo’yicha bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi, ularning kasbiy ta’lim xizmatlariga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart –sharoitlar yaratish pedagog xodimlarning asosiy vazifasi. Shunday ekan davlat ta’lim standartlari doirasida umumta’lim va kasb-hunar dasturlarini amalga oshirishda o’quvchilarning tanlangan kasbga muvofiq o’qishni, ta’limning navbatdagi bosqichlarida davom ettirish va mehnat

faoliyati bilan shug’ullanish uchun zarur va yetarlicha bo’lgan bilimlari va kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish talab etiladi. Bunda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan kelishilgan holda Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan tasdiqlangan davlat ta’lim standartlari asosida ishlab chiqiladigan maxsus o’quv rejalarini va dasturlari bilan belgilanadi. Ta’lim jarayoni kasbiy va amaliy ko’nikmalar bilan birga o’quvchilar shaxsining shakllanishiga, ularning ijtimoiy moslashuviga va jamiyatga uyg’unlashuviga ko’maklashadi.

Imkoniyati cheklangan o’quvchilarni tanlangan kasblari bo’yicha o’qish muddati o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining tegishli mutaxassisliklari va kasblari

bo’yicha imkoniyatlari cheklangan shaxslar o’qishi uchun zarur va yetarli o’quv yuklamasining umumiyligi hajmi hisobga olingan holda belgilanadi. Bunda tanlangan

kasblarning soni va murakkabligi e’tiborga olinadi. O’quvchilarni o’qishga qabul qilish, ularning o’qish yo’nalishlarini ixtiyoriy tanlashi hisobga olingan holda umumiyligi o’rta ta’lim negizida amalga oshiriladi. O’qishga qabul qilishda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mutaxassisliklari va kasblar ro’yxatiga muvofiq tibbiy tavsiyalar hisobga olinadi.

O’quvchilarning kasb tanlashi o’ziga xos murakkab va qat’iy ketlikdagi jarayon bo’lib bu, jarayonga jiddiy yondashilsa ko’proq anglashilmovchilikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari kasb tanlashda barcha tanlovlardagi singari vaqt o’tib borishi bilan afzallikning o’zgarib borishi masalasi turadi. Ya’ni avval afzal deb topilgan tanlov vaqt o’tishi va ijtimoiy rivojlanish natijasida o’zining qimmatini



o'zgartirib boradi. Har bir insonning yoshi ulg'ayishi sari uning qiziqishlari o'zgarib boradi, natijada kasbga nisbatan tanlov ham vaqt o'tgan sari o'zgarishi mumkin.

O'quvchilar mакtabda o'ргanishi lozim bo'lган barcha kasblarning muhimligi, zarurligini qulay va qiziqarli shaklda ochib berishi zarur. Ana shu maqsadda maktab ustaxonalariga, korxonalarga ishlab chiqarish ekskursiyalari uyuştirish tavsiya etiladi. O'quvchilar bu yerda ommaviy ishlab chiqarish ishlari, o'z ota-onalarining mehnati bilan dastlabki tarzda tanishadilar. Ota-onalar bolalarga ta'lim berishning muvaffaqiyati o'quvchilarning o'zlariga taklif etiladigan mehnat topshiriqlarini o'zlashtirishga, olingen bilimlar asosida mashqlar bajarishga qanchalik tayyorgarligi bog'liq bo'ladi. Bunday bolalar o'z psixologik rivojlanishlari xususiyati tufayli barcha ish bosqichlarini zarur darajada chuqur o'zlashtirmasligi mumkin. Yordamchi maktabning o'ziga xos xususiyati ta'limning kirish yo'naliши yaqqol ifodalanishi bilan ajralib turadi, bunda har bir yangi bosqichdan oldin tayyorgarlik darajasi amalga oshiriladi. Masalan, o'quvchi buyumning tayyorlashning butun jarayonini esda saqlab qololmasligi mumkin. Shu sababli ish tushuntirib beriladi, ayrim usullar operatsiyalar bo'yicha namoyish qilinadi. Bundan maqsad bola butun ish jarayonini yaxlit va har bir detalni alohida tasavvur qila olsin. Tuzatish va yo'naltirish vazifasini hal qilishda o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi.

O'quv -tarbiya jarayoni metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirdagina imkoniyati cheklangan o'quvchilarning psixofiziologik rivojlanishdagi kamchiliklarini muvaffaqiyatli tuzatish mumkin. Defektolog o'qituvchi o'z fanini o'z o'quvchilarini yaxshi bilishi, o'quv materialini, ta'lim metodlarini, ko'rgazmali qurollarini, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan didaktik materialni sinchiklab tanlashi lozim.

Jahon pedagogik hamjamiyatidagi ishlab chiqarish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni o'rta umumta'limni yaxshilashning muhim omili sifatida tan oladi. Ta'lim masalalari bo'yicha Yuneskoning xalqaro Konferensiyasining tavsiyalarida asosiy sohalarida qo'llaniladigan asosiy ilmiy qoidalarni tushunishga yordam berishi o'quvchilarni jismonan va aqliy qobiliyatlarini hamohang kamol toptirishga xizmat qilishi, ishlar sharoitida stanok va boshqa jihozlar bilan ishslash, ko'nikmalar, malakalarini egallashda yordam berishini ta'kidlab o'tgan.

Yoshlarni kasbga yo'naltirishda o'quvchilarning alohida qobiliyatları va mehnat resurslarini jamiyat manfaatlariga mos tarzda taqsimlanishini hisobga olish lozim. Kasbga yo'naltirish har bir shahxsning alohida fazilatlari mamlakat xalq xo'jaligining iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, mehnat bozorini to'laqonli hisobga olib yorqin va mustaqil kasb tanlashga tayyorlashga asoslangan tizimidir.

Mamlakatimizda nogironligi bo'lган shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, to'siqsiz muhit yaratish, jamiyatga integratsiya qilish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda davlatimiz

rahbarining bu borada muhim farmon va qarorlari qabul qilingani nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning hayotga intilishini oshirish, jamiyat hayotida faol qatnashishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Albatta, har bir sohaning rivojlanishi, ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari bilan bog'liq masalalarni hal etish, avvalo, qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan keyingi yillarda qonunchilikka muhim o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu soha huquqiy tomondan to'liq qamrab olindi. Masalan, nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lif olishi, ilm o'rganishi, kasb tanlashi, hunar o'rganish borasidagi huquqlarini amalga oshirish masalasida Mehnat kodeksiga, "Ta'lif to'g'risida"gi qonunga yangi me'yorlar kiritildi.

Bundan tashqari, Shaharsozlik kodeksida nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin harakatlanishi, ijtimoiy ob'ektlarga emin-erkin kirib chiqishi uchun sharoit yaratish masalalari ko'zda tutildi. Binolarni qurishda, loyihalashtirishda ham nogironligi bo'lgan shaxslarning harakatlanishini hisobga olish alohida me'yor sifatida belgilandi.

Umuman aytganda, nogironligi bo'lgan shaxslarning bilim olishi, hunar o'rganishi, jamiyatda o'z o'rmini topishi uchun huquqiy jihatdan sharoit yaratildi. Bu borada davlat tashkilotlarining majburiyatlari aniq belgilab berildi.

Prezidentning «Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori imzolangan.

Hujjatga ko'ra, 2022- yil 1- fevraldan boshlab:

a) Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tasarrufida professional ta'lif muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar bilan bирgalikda barcha hududlardagi kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbhunarga o'rgatish bo'yicha har chorakda qisqa muddatli kurslar tashkil etiladi. Bunda, qisqa muddatli kurslarning o'quv dasturlari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarni inobatga olgan holda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi, O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi, O'zbekiston nogironlar jamiyatasi, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyatasi hamda O'zbekiston karlar jamiyatasi bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi.

b) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi "Ishga marhamat" monomarkazlarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tavsiya etilgan va mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar, xorijiy til, kompyuter savodxonligi va kompyuterda dasturlash asoslari bo'yicha doimiy ravishda o'quv kurslarini tashkil etadi. Bunda, o'quv kurs (guruh)larini tashkil etishda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun bino-inshootlarni moslashtirish, tegishli shart-sharoitlarni yaratish, jihozlash, o'quv qurollari va o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar

Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda xorijiy grant va kreditlar hisobidan amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab quvvatlash davlat darajasiga ko'tarilgan. Yurtimizda inson manfaatlarini ta'minlash maqsadida olib borilayotgan odilona siyosat va tashabbuslar barcha yurtdoshlarimizni birdek quvontirmoqda. Yaratib berilgan bu kabi imkoniyatlardan unumli foydalanib har bir yurtdoshimiz hayotda o'z maqsadlari ro'yobida yangi yutuqlarga erishmoqda. Bu esa, Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiquvchi xalq va davlat birdamligining amaldagi ifodasi demakdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.: - Toshkent: "O'zbekiston", 2017
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: "O'zbekiston", 2016.
3. N.Xolmurodova. (2022) Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishning psixologik jihatlari.
4. Bogdanova T.G. Surdopsixologiya. –M., 2002.
5. L.Mo'minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar. Maxsus psixologiya -T. Fan va texnologiyalar ,2013.
6. P.Po'latova, L.Nurmuxamedova, Sh. Amirsaidova. Maxsus pedagogika -T. Fan va texnologiyalar, 2014.